

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

VALYUTA KURSLARI O'ZGARISHLARI NATIJALARI HISOBINI  
TAKOMILLASHTIRISH.

*Bozorboyev Ulug'bek Umidjon o'g'li*

*Andijon Mashinasozlik instituti Iqtisodiyot fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit  
yo'nalishi K 11-20 gurux talabasi [ulugbekbozorboyev4290@gmail.com](mailto:ulugbekbozorboyev4290@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar :proff Abdullayev A.*

**Annotatsiya.** Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash sharoitida turli soha va tarmoqlari o'rtaqidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari , turmush darajasining sezilarli ravishda oshgani xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya faoliyatini takomillashtirish, ularning hisob-kitob va valyuta schyoti bilan bog'liq muomala munosabatlarini tartibga solishni taqazo etmoqda, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

**Kalit so'zlar:** valyuta kurslari o'zgarishlari natijalari hisobi moammolari. ma'lumotlarning noaniqligi, insoniy hatolar, qonunchilikdagi bo'shliqlar, valyuta kurslari o'zgarishlari natijalari hisobini takomillashtirish, hisob kitob jarayonlarini soddallashtirish yo'llari.

### Valyuta kurslari o'zgarishlari natijalari hisobi moammolari.

Valyuta kurslari o'zgarishlari natijalari hisobi moammolari, bu bugungi global iqtisodiyotda ahamiyatli mavzu. Valyuta kurslarining o'zgarishi mamlakatning iqtisodiyoti va jamiyati uchun katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar narxlarni, eksport-import operatsiyalarini va investitsiyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, valyuta kurslari o'zgarishlari natijalari hisobi moammolari global iqtisodiyotda xavfli holatlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun davlatlar valyuta kurslarini diqqat bilan nazorat qilishi zarur.

Valyuta kurslari o'zgarishlari natijalari hisobi bir qator muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Quyida ushbu muammolarni batafsil ko'rib chiqamiz:

#### Ma'lumotlarning Noaniqligi.

Notogri malumotlar valyuta kurslarini hisoblash uchun ishlatiladigan ma'lumotlarning noto'g'ri yoki noaniq bo'lishi va natijalarning aniqligini kamaytiradi.

Malumotlarning yetishmasligi valyuta kurslariga ta'sir qiluvchi barcha omillar haqida to'liq ma'lumot mayjud emasligi tahlillarni qiyinlashtirad.

#### Texnologik Muammolar.

Yaroqsiz dasturiy taminot: Eski yoki zamonaviy emas dasturiy ta'minotdan foydalanish hisob-kitoblarni noto'g'ri qilishi mumkin.

Integratsiya qiyinchiligidagi Turli tizimlar orasida ma'lumotlarni birlashtirish va uzatishdagi muammolar valyuta kurslarini aniq kuzatishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

#### Insoniy hatolar.

Xato malumot kiritish: hisob-kitob jarayonida insoniy xatolar sababli noto'g'ri ma'lumotlar kiritilishi. Raqamlar yoki valyuta kurslari noto'g'ri kiritilsa, yakuniy hisob-kitoblar ham noto'g'ri chiqadi. O'zgarishlarini tahlil qilish va prognoz qilishda insoniy xatolar ko'p

uchraydi. Analitiklarning noto‘g‘ri farazlari, statistik xatolar va tahlil vositalarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi natijasida noto‘g‘ri prognozlar paydo bo‘ladi.

Hisob-kitoblar va tahlillarni amalga oshirishda foydalaniladigan dasturiy vositalar va texnikalar bilan bog‘liq xatolar. Masalan, Excel yoki boshqa hisob-kitob dasturlarida formulalarni noto‘g‘ri qo‘llash, dasturiy xatoliklar va texnik nosozliklar hisob-kitoblarning noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi.

Bu holatlar asosan kadrlarning yetarli malakaga ega emasligi bilan bog‘liq. Xodimlar zamonaviy tahlil vositalari va texnologiyalaridan yetarli darajada foydalana olmasliklari mumkin. Bu esa hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va aniqligini oshirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Mutaxassislarning malakaga ega emasligi hisob-kitoblar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

### **Regulyatsiya va qonunchilikdagi bo‘shliqlar.**

Regulyatsiya yetishmasligi: Ayrim mamlakatlarda valyuta bozorlarini nazorat qiluvchi yetarli darajada qat’iy regulyatsiya yo‘qligi.

Qonunchilikdagi bo‘shliqlar: Valyuta operatsiyalarini nazorat qiluvchi qonunchilikdagi bo‘shliqlar va noaniqliklar kurslar o‘zgarishini hisoblashda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Risklarni togri baholay olmaslik: Kelajakdagi valyuta kurslarini aniq prognoz qilishning murakkablig Valyuta risklarini to‘g‘ri baholay olmaslik kurslar o‘zgarishlariga qarshi samarali choralar ko‘rishga xalaqit beradi.

### **Global omillar.**

Geosiyosiy notinchlik vaziyatlarning keskin o‘zgarishi valyuta kurslarini oldindan aytish va hisoblashni qiyinlashtiradi, valyuta kurslarida katta o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mamlakatlar aro nizolar, siyosiy holatlar, urushlar, chegaralardagi mojaro holatlarida valyuta bozorlari begaror bo‘lib, valyuta kurslari keskin tebranishlarga uchraydi.

Geosiyosiy tahdidlar paytida investorlar o‘z aktivlarini xavfsiz joylarga ko‘chirishga intiladi, bu esa valyuta kurslarini tez va keskin o‘zgarishlarga olib keladi. Xalqaro siyosiy voqealar global moliyaviy bozorlarni larzaga soladi.

Boshqa mamlakatlarning siyosati: Boshqa mamlakatlarning iqtisodiy va monetar siyosatlari valyuta kurslariga ta’sir qilishi va hisob-kitoblarni qiyinlashtiradi. 2020-yilda koronavirus bilan bog‘liq sog‘liq inqirozi bilan valyuta kurslarida keskin o‘zgarishlar kuzatildi. Epidemiyaga qarshi qat’iy qoidalar global iqtisodiyotni sekinlashtirib, valyuta kurslarining keskin o‘zgarishiga olib keldi. Yaqinda Rossiyaning Ukrainianadagi urushi, Isroil Falastin mojarosi xalqaro bozorlarda noaniqlikni yanada kuchaytirdi hamda valyuta kurslaridagi kuchli tebrnishlarga sabab bo‘lmoqda.

### **O‘zgaruvchan malumotlar.**

Dinamik o‘zgarishlar: Valyuta kurslari doimiy ravishda o‘zgarib turishi va bu o‘zgarishlarning tezkor hisob-kitobini talab qilishi.

### **Xalqaro standartlarga muvofiqlik.**

Xar xil davlatlarda xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiq turli usullar va qoidalar mavjud. Bu ayniqsa, transmilliy kompaniyalar uchun muammoli bo‘lishi mumkin. Turli davlatlar va tashkilotlar turli hisob-kitob metodologiyalarini qo‘llaydi, bu esa valyuta kurslari o‘zgarishlarining natijalarini solishtirishni qiyinlashtiradi.

### **Valyuta kurslari o‘zgarishlari natijalari hisobini takomillashtirish yo‘llari.**

Valyuta kurslari o‘zgarishlari natijalari hisobini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘llar va choralarni ko‘rib chiqish mumkin. Bu yo‘llar valyut bo‘yicha hisob-kitoblarning aniqligini oshirish, xatolarni kamaytirish va investorlar uchun ishonchli tahlillarni taqdim etishga yordam beradi.

## Ilmiy elektron jurnali

### Zamonaviy texnologiyalar.Hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirish.

Valyuta kurslari o'zgarishlari natijalari hisobini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Valyuta kurslarini avtomatik ravishda kuzatish va hisob-kitoblarni algoritmlar yordamida amalga oshirish insoniy xatolarni kamaytiradi va aniqlikni oshirish imkonini beradi.

Ushbu texnologiyalarni joriy etish orqali valyuta kurslari o'zgarishlarini yanada ishonchli va samarali tarzda hisobini yuritish mumkin. Zamonaviy dasturiy ta'minotlar va algoritmlar yordamida katta ma'lumotlarni tahlil qilish aniqlikni oshiradi va ularni muntazam yangilab turish orqali xatolarni kamaytirish mumkin.

Malaka oshirish hodimlar uchun treyninglar. Bu jarayon ishonchlilik va samaradorlikni ta'minlash uchun zarur. Ish joyida o'tkaziladigan treninglar va seminarlar orqali xodimlarning malakasini oshirish. Ichki trening, work and travel dasturlari, tahliliy sessiyalar, va seminarlarda ishtiroy etishni taminlash.

Xodimlarning malakasini oshirish uchun xalqaro sertifikatlash dasturlarida qatnashish, onlayn platformalar orqali malaka oshirish kurslariga yo'naltirish.

Tajribali mutaxassislarni mentorlikka jalb qilish orqali yangi xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish. Xodimlarni turli loyihalarda birgalikda jamoaviy ishlash turli tajribalar va bilimlarni o'zaro almashish.

### Hisob kitob jarayonlarini soddalashtirish.

1C dasturi muayyan valyuta kurslarini avtomatik ravishda hisoblash imkonini beradi va moliyaviy hisob-kitob jarayonlarini takomillashtirishda yaxshi variant bo'lib hisoblanadi. Bu dastur moliyaviy hisob-kitobni olib borish, boshqarish va hisobotlar tayyorlashni osonlashtiradi 1C dasturi orqali valyuta kurslarini va moliyaviy vaziyatni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini beradi

Rossiyada ishlab chiqilgan va dunyoda mashhur bo'lgan moliyaviy hisob-kitob dasturi foydalanuvchilarga sodda interfeys va keng chet ellik til ko'maklarini taklif etadi.

Valyuta kurslarining o'zgarishlarining hisobini takomillashtirishda halqaro standartlardan foydalanish, moliyaviy hisob-kitob jarayonlarini tartibga solish, ma'lumotlarni toplash va tahlil qilishda aniqlikni ta'minlaydi. Bu borada "IAS 21", kompaniyalar va boshqa tashkilotlar uchun valyuta kuruslarining moliyaviy hisob-kitobini muvofiqlashtirishning moliyaviy hisob-kitobni tartibga solishning qanday qilib amalga oshirilishi kerakligini aniqlab beradi.

Valyuta kurslarining o'zgarishlarining hisobini takomillashtirishda qonunchilikning muhim roli bor. Qonunchilik, moliyaviy hisob-kitobning to'g'ri amalga oshirilishi, hisob-kitob jarayonlarining boshqarilishi va ma'lumotlar toplashi va tarqatilishi uchun kritik asosiy qoidalarni taqdim etadi.

Raqamli muhitda to'g'ri qonunchilik tashkil etilishi, moliyaviy hisob-kitobning aniq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi „Buxgalteiya hisobi tog'risida”gi qonun.
2. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining Milliy standartlari.
3. O'zbekiston Respublikasining,, Valyutani tartibga solish tog'risi”dagi qonuni.
4. 22-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti(Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi)
5. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS) 21 „Valyuta kurslari o'zgrishlarining tasiri”.
6. 4-sonli buxgalteriya xisobining milliy standarti.
7. A.A. Abdullayev, M.B. Yusupova – “Buxgalteriya hisobi” darslik 2019- yil.
8. Soliyev B., Mo'ydinov E., Yusupova M – “Moliyaviy hisob” darslik Toshkent. 2005-yil
9. <https://lex.uz/ru/docs/-809001?ONDATE=27.10.2018>
10. <https://lex.uz/acts/-4106884>